

IQTISODIYOT

Dilshodov Shoxjahon Sherzod o'g'li

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"

Milliy Tadqiqot Universiteti 102-guruh talabasi

Iqtisodiyot nima o'zi
Hamma har xil o'ylaydi
Men sizlarga aytayin
Iqtisodning ma'nosin.
Yuzaki qaralganda
Xuddi sodda narsadek
Chuqurroq izlanganda
Labirintdan chalkashroq
Sonlarning ayirmasi
Foizdagi ifodasi

Yoki ildiz ostidan
Kvadrat ko'paytmasi
Bunday o'ylash xatodir
Bizga qisman uyatdir
Kech bo'lmasdan birodar
O'rganib ol ma'nosin
Nima ekan iqtisodiyot
Biz o'ylabmiz xatoroq
Ayting bizga ma'nosin
Bilib olaylik tezroq
Buni barcha biladi
Hayotida qo'llaydi
Lek ahamiyat bermaydi
Shunday sodda narsaga

Iqtisodiyot bu bizmiz
Yashab yurgan odamzot
Hayotimiz har tomoni
Iqtisodiyot poydevori
Qisqa qilib aytganda
Ko'z bilan qaralganda
Iqtisodiyot bu o'zi
Hayotimiz ko'makchisi.